

Qachon kim bilan dildan suhbatlashdim

Insoniylik – tenglik, adolat, odamlar o‘rtasidagi insoniy munosabatlar tamoyillariga asoslangan dunyoqarash, odamlarga bo‘lgan muhabbat, inson qadr-qimmatiga hurmat, odamlarning manfaati uchun g‘amxo‘rlik ma’nolarini ifodalaydi. Insonning cheksiz imkoniyatlari va mukammallikka bo‘lgan qobiliyatiga ishonish, shaxsning qadr-qimmatini, erkinligini himoya qilish talabi, insonning baxtga bo‘lgan huquqi g‘oyasi va uning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish jamiyatning yakuniy maqsadi bo‘lishi kerak bo‘lgan koinot prinsipi.

Odamlarning kundalik munosabatlariga nisbatan insonparvarlik tamoyilini ifodalovchi axloqiy sifat hisoblandi. Unga yana bir qancha shaxsiy fazilatlar — xayrixohlik, odamlarga hurmat, ularga hamdardlik va ishonch, saxiylik, manfaatlar yo‘lida fidoyilik va boshqalar kiradi, shuningdek, kamtarlik, halollik va samimiyligni o‘z ichiga oladi. Mana shunday insoniy hislatlardan yana biri esa insonlar bilan dildan suhbatlashishdir.

Inson har doim o‘zining eng aziz kishisi bilan suhbat qilishni xohlaydi. Hayotda shunday vaqtlar bo‘ladiki, inson ish ko‘pligidan, vaqti yo‘qligidan yaqin insonlari bilan doim ham dildan suhbat qila olmaydi. Vaqt o‘tgan sari odamlar yoshlik xotiralarini, eng beg‘ubor damlarini sog‘inadi. Shunday ekan biz doimo o‘z yaqinlarimiz, atrofimizdagi insonlarni qadrlashimiz, ularning qalb tuyg‘ularini tinglashimiz lozim.

Bugungi axborotlashgan jamiyatimizda xuddi shu narsa, insonlar o‘rtasidagi samimiy suhbat kamayib borayotgandek. Ko‘chada, uyda, ishxonada ko‘p boruvoh bo‘lmoqdamizki, samimiy yuzma-yuz suhbatlashish insonlar orasida juda kamyob voqeaga aylanib borayotgandek. Sababi, ko‘chada kimga qarasangiz, albatta, qo‘lida telefoni bilan kim bilandir suhbatlashayotgan bo‘ladi. Yoki ijtimoiy tarmoqda nimalarnidir izlayotgan bo‘lishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, hozirgi kundagi ijtimoiy tarmoq, uyali aloqa vositalari odamlar orasidagi samimiyatning yo‘qolishiga, dildan suhbatlashishning juda kamayib borishiga, yolg‘onchilikning, o‘zaro hurmat va e‘tiborning kamayishiga sabab bo‘lmoqda.

Ibragimov X.